



INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Mamarasulov Raximbek Munosib o'g'li

Jizzax viloyati Forish tumani 61-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan bo'lib, unda maktabda va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llanadigan metodlar haqida so'z boradi.*

Abstract: *This article provides methodological recommendations on the use of modern methods in English language classes, and it talks about the methods used in school and extracurricular educational activities.*

Аннотация: *В данной статье даны методические рекомендации по использованию современных методик на занятиях по английскому языку, а также рассказывается о методиках, применяемых в школьной и внеурочной образовательной деятельности.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *yosh avlodni ingliz tilida erkin so'zlasha olish qobiliyatini shakllantirish.*

The purpose of writing this article is to develop the ability of the young generation to speak English fluently.

Цель написания этой статьи - развить способность молодого поколения свободно говорить по-английски.

Usul va o'yinlar: *"Baxtli tasodif", "Ranglardan oldik saboq", "Topqir rassom"..*

Methods and games: *"Happy coincidence", "A lesson from colors", "Resourceful artist".*

Методы и игры: *«Счастлирое стечение обстоятельств», «Урок цветов», «Находчивый художник».*

Natija: *O'quvchilarda ingliz tili faniga qiziqish ortadi, undagi so'zlarni tez va oson o'rganadilar va mavzularni o'zlashtirishga zamin yaratiladi.*

Result: *Pupils become more interested in the subject of the English language, they learn the words in it quickly and easily, and the basis for mastering the topics is created.*

Результат: *Ученики больше интересуются предметом английского языка, быстро и легко усваивают слова на нем, создается база для усвоения тем.*

Kalit so'zlar: *noan'anaviy o'qitish, ilg'or pedagog, pedagogik faoliyat, ijodkor va novator, takomillashtirish, tajriba, ingliz tili metodikasi, o'qitish uslubi...*

Key words: *non-traditional teaching, advanced pedagogue, pedagogical activity, creator and innovator, improvement, experience, English language methodology, teaching style..*

Ключевые слова: *нетрадиционное обучение, передовой педагог, педагогическая деятельность, творец и новатор, совершенствование, опыт, методика английского языка, стиль преподавания...*



Ma'lumki noan'anaviy o'qitish usuli mamlakatimizda keng tarqalgan. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda noan'anaviy ta'limning muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topa olmayotganligini qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, eski an'anaviy uslub bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun fikrimizga biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirilishi mumkin.

Xush, yangi pedagogik texnologiyaning o'zi nima, unga qanday erishib bo'ladi? Yangi pedagogik texnologiya - bu qandaydir mavhum, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshirib bo'lmaydigan narsa emas. Bu murakkab uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon o'qituvchining bosqichma-bosqich pedagogik mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko'tarilishi kabi nihoyatda qiyin mashaqqatli mehnatning samarasi sifatida har bir o'qituvchi erishishi mumkin bo'lgan mahorat cho'qqisidir.


Modomiki pedagogik texnologiya bosqichma-bosqich qo'lga kiritilar ekan, uning bosqichlarini qarab chiqaylik. Pedagogik texnologiyani egallash eng avvalo, tinimsiz mehnat, har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashini taqozo qiladi. Bu ish dastlab ilg'or pedagogik tajribalarni o'rgatishdan boshlanishi lozim. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va yoyish o'qituvchilar uchun o'z kasb mahoratlarini takomillashtirishning tajribali o'qituvchilarini takomillashtirishning eng qulay shaklidir. Ilg'or pedagogik faoliyatga ijodkor va novatorlarga yondoshib, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning yangi yo'llarini izlab topishdir.

Keyingi paytlarda “Ilg'or pedagog”, “Ilg'or o'qituvchi”, “Novator pedagog” tushunchalari matbuot sahifalarida, pedagoglarning o'zaro suhbatlarida, uslubiy kengash, seminar va konferensiyalarda ko'p tilga olinmoqda, lekin ular asosida uncha yangi emas.

“Ilg'or pedagog” avvalo, boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mu'suliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib o'z darslarida, maktabda va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali o'quvchilarni ta'lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

Quyida ingliz tili darslarida zamonaviy usullarni keltirmoqchiman:

“Baxtli tasodif” metodi. Ushbu usulda rangli sharlarni tanlashadi va undagi savollarga javob beriladi. Bu usul darslarni mustahkamlash qismida qo'llashda samara beradi.













Ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma‘lum mezonlarga asoslanishi kerak. Bunda eng muhim mezon o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llaydigan ta‘lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va usulidir. Bu mezon ilg‘or o‘qituvchini oddiy o‘qituvchilardan ajratadigan eng muhim belgisidir. O‘qituvchi qo‘llaydigan yangilik turlicha masalan ta‘lim yoki tarbiyaning yangi mazmuni, shakli, metodi, pedagogik mehnatning eng ta‘sirchan takomillashtiruvchi yo‘llarini belgilashdan iborat bo‘lishi mumkin.

“Ranglardan oldik saboq” usuli. Bu usul quyidagicha tashkil etiladi.

Colours Picture Test Name:

Spell and write. 10

 L E U B	 E R N G
 R E G Y	 A N R G E O
 I N P K	 L C B K A
 L O W L E Y	 R P U P E L
 R O N B O W	 D E R

Ilg‘or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijalarga erishishi uchun zamin hozirlashidir. Bunda o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. Pedagogik maxorat o‘z ichiga pedagogik texnikani oladi.

Pedagogik ijod jarayonida ta‘lim-tarbiyaga butunlay yangicha yondashish ishlab chiqilishi, yangicha shakl, uslubiy usul, vositalarni yangicha sharoitda qo‘llanilishini asoslanishi yoki ularni yangicha vazifalar talabi asosida takomillashtirish nazariy va uslubiy xulosalarni pedagogik jarayonga qo‘llash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Amaliy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan muallimlar uchun pedagogik ijodning eng oliy bosqichi ta‘lim-tarbiyani mutlako yangi, yuqori natija beruvchi shakllarini yaratishdir.


Biz yangi pedagogik texnologiya haqida fikr yuritar ekanmiz “pedagogik ijod” bilan “pedagogik mahorat” tushunchalarining ham o‘zaro munosabatini tahlil qilishimiz lozim. Bular bir-biriga yaqin bo‘lib, ammo ular mutlaqo teng emas. Mahoratli, o‘z ishini mukammal o‘rgangan o‘qituvchi tushuniladi.

“Topqir rassom” usuli. Bunda o‘quvchilar yangi mavzuni bo‘yoqlarda topadilar.

Name: Lavinia Pop © 2015



Write the missing letters on the blank hearts.



Xulosa qilib aytganda, darsning sifati va samaradorligi ko‘p sahifali tuzilgan dars rejasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Rejada maqsadlar amalga oshiriladigan ishlar, kim, nimani va qachon amalga oshirish, har bir xatti-harakatlar vaqti soniyalarga bo‘lingan bo‘lsada, darsga tayyorlanishga qancha mehnat va vaqt sarflansa ham darsdan qoniqish, ko‘zlangan maqsadga erishmaslik ham mumkin. Ba‘zan puxta (sinchiklab) ishlangan dars rejasi ostin-ustun bo‘lib ketishi, o‘qituvchi xuddi bo‘sh o‘quv xonasida dars berganga o‘xshab qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ochilov M. Muallim-qalb me‘mori. Saylanma.-T.: O‘qituvchi, 2001-yil, 430-b.
- 2.Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: “Fan”. 2005.
- 3.Farberman. B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001-y